



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 342 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'quvchilarni intellektual rivojlantirishning psixologik omillari.....	22
<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	
Maktabgacha ta'limda bolaning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila bilan ishlashning nazariy asoslari	27
<i>Jumanova Fatima Uralovna, Allaberganova Munisa Begimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning metodologik asoslari	32
<i>Jo'rayeva Nargiza Tairovna, Bekbergenova Yulduz Tanirbergen qizi</i>	
Faoliyatli yondashuv asosida maktabgacha 6-7 yoshli bolalarda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	35
<i>Ziyodullayeva Mohirabonu Ikromjon qizi</i>	
Davlat ta'lim muassasalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari ...	39
<i>Xaybatullaeva Sojidxon Ziyatullayevna</i>	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishda integratsion yondashuv	42
<i>Kamoliddinov Mirzohid</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligi	45
<i>Kamoliddinova Dilnoza Axmadilaxanovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirish mexanizmlari.....	48
<i>Nurjanova Rayxan Urazbaevna</i>	
Sinf biologiya fanini o'qitishda TIMSS topshiriqlardan foydalanish metodikasi va baholash mezonlari	52
<i>Xaitboyeva Dilorom Rustam qizi</i>	
Qandli diabet tashxisli bemorlarda shaxs tuzilmasining emotsional komponentlari	56
<i>Sadikova Umida Botirovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda pedagogik diagnostikani amalga oshirishning natijaviyligi	60
<i>Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Qodirova Shaxnoza Saidazim qizi</i>	
Kasbiy imij shakllanishida psixologik jihatlarning tafovutlari	64
<i>Aminova Dilnoza Orifjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining jamoa bilan ishlash jarayonida yetakchilik kompetensiyalarini rivojlantirish	69
<i>Abdiyeva Fazilat Fayzulla qizi</i>	
Kichik maktab yoshidagi bolalar shaxsi rivojlanishida psixologik moslashuvning tipik xususiyatlari	73
<i>Mirsaitova Guzal Baxodirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarining qo'llanilishi	76
<i>Quvvatova Mohira Hikmatillayevna</i>	
Interfaol treninglar orqali o'qituvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish tajribasi	79
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyani shakllantirishning ahamiyati.....	82
<i>Zulayxo Nazarova, Qarshiboyeva Muxlisa Ismatullo qizi</i>	
Ijodiy qobiliyatni o'stirishda pedagogik mahorat va innovatsion metodlar	85
<i>Mutallibova Odinaxon Mirzaolimjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olimpiadalarga tayyorlashda masalalar yechish texnologiyasi 11-sinf misolida	89
<i>Aslonov Xayrullo Shukrullo o'g'li</i>	



Bokschi qizlarni texnika taktikasini takomillashtirish.....	94
<i>Axmedov Latifjon G'ayrat o'g'li</i>	
Ixtisoslashtirilgan terminologiyaning asosiy lingvistik xususiyatlari	99
<i>Axmedova Dilnoza Anvarovna</i>	
Interfaol metodlar orqali zamonaviy darslarni tashkil etishning o'ziga xos tendensiyalari	102
<i>Bakirov Otabek Bo'ranovich</i>	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilishning metodologik muammolari	106
<i>D. J. Norboyeva</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalari ruhiyatiga virtual muhitning salbiy ta'siri	110
<i>Giyosov Ulug'bek Eshpulatovich, Turayeva Nigora Husniddin qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	113
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kognitiv qobiliyatlarni shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar	117
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i>	
Principles of Organising Autonomous Learning.....	121
<i>Khazratova Zukhra Mamaraimovna</i>	
Najot – ta'limda, najot-tarbiyada	124
<i>Mo'minova Manzura Mamasodiqjonovna</i>	
Educational Potential of Museum Pedagogy and Criteria for its Application in Developing Historical Thinking of Pre-Service History Teachers.....	127
<i>Niyozov Javlonbek</i>	
Landshaft dizayni vastasida bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining estetik va kreativ ko'nikmalarini rivojlantirish	131
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik merosida shaxs psixologiyasi masalalari.....	134
<i>S. O. Mamarasulov, D. A. Egamberdiyeva</i>	
TBL metodini qo'llash orqali o'quvchilarning madaniyati va ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish....	138
<i>Sodikova Oyshakhon Muxammadsodik</i>	
Pedagogik innovatsiyalarni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari.....	142
<i>Soliqova Barno Sodiq qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim magistratura talabalarining ijodiy faolligini rivojlantirish shart-sharoitlari	146
<i>Yarmatov Shermo'min Rahmatovich</i>	
Формирование готовности родителей детей старшего дошкольного возраста к выполнению воспитательной функции в семье.....	149
<i>Атаджанова Сохиба Талиповна</i>	
Redjio pedagogik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	152
<i>Djamilova Nargiza Nuritdinovna, Otahonova Marjona</i>	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	155
<i>Kayumova Nazokat Rashitovna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida chet tili o'qituvchilari va talabalar o'rtasidagi interaktsiyaning pedagogik samaradorligi va innovatsion mexanizmlari	163
<i>Eshonqulova Umida Xolmirzayevna</i>	
MTTlarda nutqni rivojlantirishga doir mashg'ulotlarda interfaol usullardan foydalanish texnologiyasi	168
<i>To'laboyeva Iqbolaxon Olimjonovna</i>	
Ta'lim jarayonidagi konfliktlar.....	173
<i>Abulova Mohigul Komiljonzoda</i>	
Talabalarining bolalarda ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	176
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	

Shaxs tuzilmasida ma'naviy intellekt: nazariy-metodologik tahlil va psixologik interpretatsiya	179
Mirxoliqova Charos Xabibullaevna	
18-20 yoshli belbog'li kurashchilarning musobaqa oldi jismoniy tayyorgarliklari	183
Muzafarov Muxammadali Maxsudovich	
Talabalarda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanib kasbiy madaniyatini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar (boshlang'ich ta'limda tarbiya fani misolida)	187
Yadgarova Surayyo	
Maktab o'quvchilariga pedagogik ta'sir ko'rsatishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish	190
Yo'ldoshova Shahlo Shukurullo qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy tahlili	194
Yusupova Sanobar Odil qizi	
Типология научного текста: от жанровой классификации к дискурсивной модели	197
Бахтияр Катибжанович Саттаров	
Взаимодействие педагога и семьи в профилактике и преодолении стресса у детей дошкольного возраста	201
Г. С. Алиходжаева, Х. Рахимова	
Условия эффективности инклюзивного образования	206
Г. С. Алиходжаева, Л. О. Бекмуродова	
Педагогическая готовность к обучению в школе детей билингов	211
Г. С. Алиходжаева, Н. А. Ганиева	
Педагогические условия формирования эмоционального интеллекта у дошкольников	216
Джалилова Феруза Намазовна	
Milliy meros va musiqiy madaniyatning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni	219
Zuhridin Azizov	
Госпитальная школа как пространство поддержки и развития ребёнка (на примере госпитальной школы при детской клиник Синсиннати, США)	222
Муминов Р. Р., Хакимова Н. Х., Набиева Г. Г.	
Интерактивные формы работы в процессе профориентации детей дошкольного возраста	227
Н. Т. Жураева, С. М. Ахмеджанова	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	231
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	
Поэтапное вовлечение детей с расстройствами аутистического спектра в дошкольное инклюзивное образование: комплексный анализ научно-теоретических и практических подходов	234
Сабина Рагимова Ровшан кызы, Айсель Масимова Арастун кызы	
Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish	245
Allaniyazova Bibigul Sarsenbay qizi	
Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslariga kreativ fikrlash asosida tayyorlash	248
Botirova Jumagul Chori qizi	
Boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitish metodikasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishni takomillashtirish	254
Kaypova Gulnara Muratbaevna	
Umumta'lim maktablarida tabiiy-ilmiy savodxonlik ko'nikmalarining rivojlantirish masalalari	257
Davletova Hamida Xasan qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashning psixologik jihatlari	261
Fayzullayev Ermat Majidovich, Ortiqova Mashxura	
Orkestr va ansamblarning fan sifatidagi o'rni va tarbiyaviy ahamiyati	265
Fayzullayev Ermat Majidovich	
Maktab fizika darslarida interaktiv dasturlar va simulyatorlardan foydalanish metodikasi	269
Xayriddinova Malikaxon Qodirxon qizi	



Musiqada midi musiqiy cholg'ularning raqamli interfeysi.....	274
<i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich</i>	
Karyera o'sishida gender tafovutlarning ahamiyati.....	277
<i>Yulchiboyeva Nazokatxon Iqboljon qizi</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar	283
<i>Omonov Xasanxon Sulaymonovich, Normuradova Nafisa Kuchkarovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasi – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida	287
<i>Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Marjona Atoyeva Ismat qizi</i>	
Ilk yoshdagi bolalar psixologiyasi va rivojlanish xususiyatlari.....	291
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Ne'matjonova Gulzira Ne'matjon qizi</i>	
Jadid pedagogik tafakkurida "o'qituvchi" fenomeni.....	294
<i>Xushbokov Oybek Uralovich</i>	
Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida savol berish malakalarini shakllantirish	296
<i>Erhanova Nasiba Absayitovna</i>	
Musiqiy ta'limda xalq va zamonaviy qo'shiqlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning etnomadaniy komponentlarni shakllantirish	298
<i>Qurbanova Muslima Shavkatbek qizi</i>	
Umumta'lim maktablari o'quvchilarida tadbirkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish metodikasi (biologiya fani misolida).....	300
<i>Akmalova Farida Dilmurod qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda adaptiv ta'lim texnologiyalari yordamida bolalar ijodkorlik ko'nikmasini shakllantirish mazmuni.....	304
<i>To'xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi iqtidorli bolalar bilan ishlashda ta'lim texnologiyasi	308
<i>Xudoyberdiyeva Durdona Baxodir qizi</i>	
Pedagogik-psixologik qarashlarda otaning oiladagi o'zni haqidagi tasavvurlarni shakllantirish dinamikasiga oid fikrlar talqini.....	311
<i>Karshiyeva Dilafuz Suyunovna, Maxamatova Munisa Mamirzo qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari	314
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda interpersonal intellekt ko'nikmalarini rivojlantirish ...	318
<i>G'ulomova Oychehra No'monjon qizi</i>	
Etnomadaniy qadriyatlarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarga singdirishning samarali yo'llari.....	321
<i>G'ulomxo'jayeva Mushtariy Elmurod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish	324
<i>Iroda Isroilova</i>	
Buxoro iqlimi va tabiiy resurslaridan samarali foydalanish: ekologik va fizik-geografik yondashuv	329
<i>Mardonova Saodat Muzaffarovna</i>	
Effective Traditional and Innovative Approaches in English Language Teaching: Evidence From EFL Classrooms	333
<i>Yuldoshev Khaydarbek</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini rivojlantirishda lingvopedagogik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari.....	336
<i>Allayarova Sojida Umirzakovna</i>	
Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения	339
<i>Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.</i>	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi

Guliston davlat universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Ingliz tilining global til sifatidagi ahamiyati hamda uni erta yoshdan o'rganish zarurati ilmiy manbalar asosida asoslab beriladi. Tadqiqotda yosh o'quvchilarning psixologik va lingvistik xususiyatlari, ingliz tilini erta o'qitishning afzalliklari hamda samarali o'qitish dasturlari modellari (FLEX, FLES, immersion va ikki tilli dasturlar) yoritiladi. Shuningdek, malakali o'qituvchilarni tayyorlash, madaniy jihatdan mos o'quv materiallaridan foydalanish va boshlang'ich hamda o'rta ta'lim bosqichlari o'rtasida uzviylikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada xorijiy, MDH va mahalliy olimlar tadqiqotlari tahliliga tayangan holda yosh o'quvchilarga ingliz tilini samarali o'rgatish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, boshlang'ich ta'lim, yosh o'quvchilar, TEYL, erta til o'rganish, o'qitish modellari.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of teaching English to young learners at the primary school level. The importance of English as a global language and the necessity of early language learning are substantiated based on academic sources. The study analyzes the psychological and linguistic characteristics of young learners, the benefits of early English instruction, and effective teaching program models, including FLEX, FLES, immersion, and bilingual education. Particular attention is paid to teacher training, the use of culturally appropriate instructional materials, and ensuring continuity between primary and secondary levels of education. Drawing on international, CIS, and local research, the article proposes practical recommendations for improving the effectiveness of English language instruction for young learners.

Key words: teaching English, young learners, primary education, TEYL, early language learning, teaching models.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические основы обучения английскому языку учащихся начальных классов. Обоснована значимость английского языка как глобального средства международного общения и необходимость его раннего изучения на основе научных источников. Особое внимание уделяется психологическим и лингвистическим особенностям младших школьников, преимуществам раннего обучения иностранному языку, а также эффективным моделям преподавания (FLEX, FLES, иммерсионные и двуязычные программы). Кроме того, анализируется роль профессиональной подготовки учителей, использования культурно адаптированных учебных материалов и обеспечения преемственности между начальными и средними ступенями образования. На основе анализа зарубежных, стран СНГ и отечественных исследований в статье предлагаются научно-практические рекомендации по повышению эффективности обучения английскому языку младших школьников.

Ключевые слова: обучение английскому языку, начальное образование, младшие школьники, TEYL, раннее обучение языку, модели обучения.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot, fan, texnologiya, ta'lim va iqtisodiyotning asosiy vositalaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilining global tilga aylanishi uni ta'lim tizimiga, xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichiga erta joriy etishni taqozo etmoqda. Ko'plab mamlakatlarda ingliz tili boshlang'ich sinflardan boshlab majburiy fan sifatida o'qitilmoqda va bu holat til ta'limi siyosatida muhim o'zgarishlar yuz berayotganidan dalolat beradi. Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilar xorijiy tillarni o'rganishda yuqori darajadagi qiziqish, taqlid qilish qobiliyati va moslashuvchanlikka ega bo'lib, bu omillar ingliz tilini samarali o'rganish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ingliz tilini erta yoshda o'qitish faqatgina yosh omiliga emas, balki ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, o'qituvchi malakasi va o'quv muhiti kabi omillarga ham bevosita bog'liqdir.



Mazkur maqolaning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilish, ingliz tilini erta o'qitishning afzalliklarini ilmiy manbalar asosida yoritish hamda samarali o'qitish modellari va metodlarini aniqlashdan iborat. Shuningdek, maqolada xorijiy, MDH va mahalliy tadqiqotlarga tayanilgan holda boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitishni yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tilni erta yoshda o'qitish masalasi tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarida keng muhokama qilinib kelinmoqda. Ayrim tadqiqotchilar bolalik davrini til o'rganish uchun qulay bosqich deb hisoblab, bu davrda o'rganilgan tilning mustahkam va tabiiyroq o'zlashtirilishini ta'kidlaydilar. Boshqa olimlar esa tilni o'rganishda yosh omilidan ko'ra o'qitish sharoitlari, metodlar va motivatsiya muhimroq ekanini qayd etadilar. Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarda nutq apparatining moslashuvchanligi yuqori bo'lib, ular tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, intonatsiyani his etish va eshitish orqali o'rganishga moyildirlar. Shu sababli ingliz tilini erta o'qitish o'quvchilarda fonetik ko'nikmalarni shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, yosh o'quvchilarning xotirasi kuchli bo'lib, ular yangi so'z va iboralarni tez eslab qolish xususiyatiga ega. Nazariy jihatdan qaralganda, ingliz tilini boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonida o'yin, muloqot va tajribaga asoslangan yondashuvlar ustuvor bo'lishi lozim. Chunki bu yoshdagi bolalar uchun til o'rganish tabiiy faoliyat bilan uyg'unlashganda samaraliroq bo'ladi. Shu bois ingliz tilini erta o'qitish jarayonida formal grammatik qoidalardan ko'ra, tilni muloqot vositasi sifatida qo'llashga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning bir qator pedagogik va ijtimoiy afzalliklari mavjud. Eng avvalo, bu jarayon o'quvchilarga ingliz tilini uzoq muddat davomida o'rganish imkonini beradi. Vaqt omili til o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ingliz tilini erta boshlagan o'quvchilar yuqori sinflarda tilni chuqurroq va erkinroq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ikkinchidan, ingliz tilini erta o'rganish o'quvchilarda to'g'ri talaffuz va nutq ravonligini shakllantirishga yordam beradi. Yosh o'quvchilar tovushlarni taqlid qilish orqali oson o'zlashtiradilar va bu kelajakda aksent muammosini kamaytiradi. Shuningdek, ingliz tilida gapirishga nisbatan ishonch va ijobiy munosabat shakllanadi. Uchinchidan, ingliz tilini erta o'qitish o'quvchilarning umumiy tafakkurini rivojlantiradi. Ikki yoki undan ortiq tilni o'rganish bolalarda mantiqiy fikrlash, muammoni turli nuqtayi nazardan ko'rib chiqish va kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi. Bu esa nafaqat til o'rganishda, balki boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. To'rtinchidan, ingliz tilini erta o'rganish o'quvchilarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiradi. Ingliz tili orqali o'quvchilar boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlari bilan tanishadilar, bu esa ularni tolerantlik va ochiqlikka o'rgatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan dastur modellari ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Har bir modelning o'ziga xos maqsadi, mazmuni va metodik yondashuvi mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ta'lim muhiti hamda jamiyat ehtiyojlariga mos holda tanlanadi.

TEYL (Teaching English to Young Learners) doirasida keng qo'llaniladigan FLEX, FLES, immersion va ikki tilli dasturlar ingliz tilini bosqichma-bosqich va mantiqiy o'rgatishga xizmat qiladi.

FLEX (Foreign Language Exploratory) dasturlari asosan boshlang'ich ta'limning quyi bosqichlarida qo'llanilib, o'quvchilarning ingliz tiliga nisbatan qiziqishini oshirishga qaratiladi. Ushbu modelda ingliz tili alohida fan sifatida emas, balki o'yinlar, qo'shiqlar va madaniy mashg'ulotlar orqali tanishtiriladi. FLEX dasturining asosiy afzalligi shundaki, u bolalarda til o'rganishga ijobiy munosabatni shakllantiradi, biroq bu modelda til kompetensiyasini chuqur rivojlantirish asosiy maqsad hisoblanmaydi.

FLES (Foreign Language in the Elementary School) dasturlari esa ingliz tilini boshlang'ich sinflarda muntazam fan sifatida o'qitishni nazarda tutadi. Ushbu modelda o'quvchilar haftasiga bir necha marotaba ingliz tili darslarida qatnashib, tinglash, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini asta-sekin rivojlantiradilar. FLES dasturlari til o'rganishda tizimlilikni ta'minlab, o'quvchilarda boshlang'ich kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Immersion va ikki tilli dasturlar ingliz tilini nafaqat fan sifatida, balki ta'lim vositasi sifatida qo'llashni nazarda tutadi. Bu dasturlarda ayrim fanlar ingliz tilida o'qitilib, o'quvchilar tilni tabiiy muhitda o'zlashtiradilar. Ushbu yondashuv yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, u malakali o'qituvchilar hamda maxsus o'quv materiallarini talab etadi.



1-jadval: Boshlang'ich ta'limda qo'llaniladigan TEYL dastur modellari

Dastur modeli	Asosiy maqsad	O'qitish shakli	Kutilayotgan natija
FLEX	Tilga qiziqish uyg'otish	O'yin, qo'shiq, suhbat	Motivatsiya va madaniy xabardorlik
FLES	Boshlang'ich til ko'nikmalarini shakllantirish	Muntazam darslar	Tinglash va gapirish ko'nikmalari
Immersion	Tilni tabiiy muhitda o'rgatish	Fanlarni ingliz tilida o'qitish	Yuqori kommunikativ kompetensiya
Ikki tilli dastur	Bilingvizmni rivojlantirish	Ikki tilda ta'lim	Ikki tilli va madaniyatlararo kompetensiya

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarning psixologik va lingvistik xususiyatlarini hisobga olish ingliz tilini samarali o'qitishning asosiy shartlaridan biridir. Ushbu yosh davrida bolalar faol, qiziquvchan va taqlid qilishga moyil bo'lib, ular tilni ongli tahlildan ko'ra tabiiy idrok etish orqali o'zlashtiradilar. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda mavzular o'quvchilarning kundalik hayoti, qiziqishlari va shaxsiy tajribasi bilan bevosita bog'langan bo'lishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xotirasi asosan tasviriy va mexanik xarakterga ega bo'lib, ular ko'rish, eshitish va harakat orqali o'rganishni afzal ko'radilar. Shu jihatdan ingliz tili darslarida vizual materiallar, qo'shiqlar, dramatizatsiya hamda jismoniy faollik elementlaridan foydalanish katta samara beradi, chunki bu usullar o'quvchilarning e'tiborini uzoqroq saqlashga va til materialini mustahkamlashga yordam beradi.

Lingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, yosh o'quvchilar grammatik qoidalarini ongli ravishda tushunishdan ko'ra tayyor nutq birliklarini eslab qolishga moyildirlar, shuning uchun ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv, ya'ni so'z va iboralarni muloqot jarayonida qo'llash ustuvor bo'lishi lozim. Bu yondashuv o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirib, ularda ingliz tilida erkin fikr bildirishga bo'lgan ishonchni shakllantiradi.

2-jadval: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatlari va o'qitish yondashuvlari

Xususiyatlar	Tavsif	Mos o'qitish usullari
Psixologik	Qiziquvchanlik, taqlid qilishga moyillik	O'yinlar, qo'shiqlar, rolli o'yinlar
Kognitiv	Tasviriy xotira ustunligi	Rasmlar, videolar, kartochkalar
Lingvistik	Tayyor nutq birliklarini o'zlashtirish	Dialoglar, suhbatlar, hikoyalar
Ijtimoiy	Guruhda ishlashga moyillik	Juftlik va guruh ishlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda qo'llaniladigan metod va yondashuvlar ularning yosh, psixologik va kognitiv xususiyatlariga mos bo'lishi zarur, chunki bu bosqichda ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki o'quvchilarda ingliz tiliga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga ham qaratilishi lozim. Shu bois darslar qiziqarli, interaktiv va mazmunan boy tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ yondashuv boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishning eng samarali metodlaridan biri bo'lib, unda til grammatik qoidalar majmui sifatida emas, balki muloqot vositasi sifatida o'rganiladi va o'quvchilar ingliz tilida oddiy savol-javoblar, kundalik dialoglar hamda qisqa suhbatlar orqali faol nutqiy jarayonga jalb etiladi. Bu holat ularda ingliz tilida gapirishga bo'lgan ishonchni oshirib, nutqiy faollikni kuchaytiradi.

O'yin texnologiyalariga asoslangan o'qitish metodlari ham yosh o'quvchilar uchun juda samarali bo'lib, o'yin jarayonida bolalar o'zlarini erkin his qiladilar, xatodan qo'rqmaydilar va tilni tabiiy tarzda o'zlashtiradilar. Rol o'ynash, harakatli o'yinlar, til o'yinlari va musobaqalar orqali ingliz tilidagi yangi so'z va iboralar mustahkamlanib, o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari ham rivojlanadi. Vizual va multisensor yondashuvlar boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda muhim o'rin tutadi, chunki rasmlar, videolar, audio materiallar, kartochkalar va jismoniy harakatlar orqali o'quvchilar ingliz tilini ko'rish, eshitish va his etish orqali o'rganadilar, bu esa axborotni uzoq muddatli xotirada saqlashga yordam beradi va darslarning samaradorligini oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ingliz tili boshlang'ich sinflardan boshlab majburiy fan sifatida joriy etilib, o'quvchilarning xorijiy tillarni erta o'zlashtirishiga imkon yaratildi. Ushbu islohotlar mamlakatda kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va yosh avlodning raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichida ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Darslarda o'yinlar, qo'shiqlar, dialoglar hamda vizual materiallardan foydalanish orqali o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishi oshirilmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va til kompetensiyasini oshirish maqsadida doimiy malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Biroq boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim hududlarda malakali ingliz tili o'qituvchilarining yetishmasligi, o'quv materiallari bilan yetarli darajada ta'minlanmaganlik hamda sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi ta'lim



sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish uchun ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda uchraydigan muammolarni tahlil qilish ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Eng asosiy muammolardan biri darslarning yetarli darajada intensiv emasligidir, chunki haftasiga bir yoki ikki soat ingliz tili darslari o'quvchilarda barqaror til ko'nikmalarini shakllantirish uchun yetarli bo'lmastligi mumkin. Shu bois ingliz tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yana bir muhim muammo o'qituvchilarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash bo'yicha maxsus tayyorgarligining yetarli emasligidir. Ingliz tilini bilish bilan birga, yosh bolalar psixologiyasi va pedagogik metodlarni puxta egallash ham o'qituvchi uchun muhim hisoblanadi. Shu bois o'qituvchilar uchun TEYL yo'nalishida maxsus malaka oshirish dasturlarini kengaytirish zarur. O'quv materiallarining madaniy jihatdan mos kelmasligi ham muammolardan biri bo'lib, agar darsliklar va didaktik materiallar o'quvchilarning milliy mentaliteti va hayotiy tajribasiga mos bo'lmasa, dars samaradorligi pasayadi. Shu sababli ingliz tilini o'qitishda mahalliy kontekstga moslashtirilgan o'quv materiallaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ingliz tilining global muloqot tili sifatidagi o'rni uni erta yoshdan boshlab o'rganishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qitish o'quvchilarda to'g'ri talaffuz, nutq ravonligi va tilga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada ingliz tilini erta o'qitishning nazariy asoslari, uning pedagogik va psixologik jihatlari, shuningdek, TEYL doirasida qo'llaniladigan samarali dastur modellari tahlil qilindi.

FLEX, FLES, immersion va ikki tilli dasturlar o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda tanlanganda hamda puxta rejalashtirilganda yuqori natijalarga erishish mumkinligi asoslab berildi. Ayniqsa, o'yin texnologiyalari, kommunikativ va multisensor yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rganish jarayonida muhim rol o'ynashi aniqlandi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida ingliz tilini boshlang'ich sinflarda o'qitish tajribasi tahlil qilinib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib berildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini erta o'qitish samaradorligi faqat yosh omiliga emas, balki o'qituvchilarning malakasi, o'quv materiallarining sifati, darslarning intensivligi va ta'lim bosqichlari o'rtasidagi uzviylikka ham bevosita bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bialystok, E. (1999). Cognitive complexity and attentional control in the bilingual mind. *Child Development*, 70(3), 636–644.
2. Butler, Y. G. (2009). Teaching English to young learners: The influence of global and local factors. In J. Enever, J. Moon, & U. Raman (Eds.), *Young learner English language policy and implementation* (pp. 23–29). Garnet Education.
3. Cameron, L. (2003). Challenges for ELT from the expansion in teaching children. *ELT Journal*, 57(2), 105–112.
4. Crystal, D. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
5. Curtain, H., & Dahlberg, C. A. (2010). *Languages and children—Making the match* (4th ed.). Pearson.
6. Garton, S., Copland, F., & Burns, A. (2011). Investigating global practices in teaching English to young learners. British Council.
7. Marinova-Todd, S. H., Marshall, D. B., & Snow, C. E. (2000). Three misconceptions about age and L2 learning. *TESOL Quarterly*, 34(1), 9–34.
8. McKay, S. L. (2002). *Teaching English as an international language*. Oxford University Press.
9. Nikolov, M. (2009). Early learning of modern foreign languages. *Multilingual Matters*.
10. Pinter, A. (2006). *Teaching young language learners*. Oxford University Press.
11. Read, C. (2003). Is younger better? *English Teaching Professional*, 28, 5–7.
12. Shin, J. K., & Crandall, J. (2011). *Teaching young learners English: From theory to practice*. Heinle Cengage Learning.
13. Galskova, N. D., & Gez, N. I. (2006). *Teoriya obucheniya inostrannym yazykam*. Akademiya.
14. Solovova, E. N. (2010). *Metodika obucheniya inostrannym yazykam*. Prosveshcheniye.
15. Bim, I. L. (2008). *Metodika obucheniya inostrannym yazykam v nachalnoy shkole*. Prosveshcheniye.
16. Passov, E. I. (2007). *Kommunikativnyy metod obucheniya inostrannomu yazyku*. Prosveshcheniye.
17. Tajibayev, G. Sh. (2019). Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasi. Namangan davlat universiteti.
18. Yo'ldoshev, J. G., & Usmonov, S. A. (2017). *Pedagogik texnologiyalar asoslari. Fan va texnologiya*.
19. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2021). Umumiy o'rta ta'limda xorijiy tillarni o'qitish konsepsiyasi. Toshkent.
20. Raximova, D. S. (2020). Boshlang'ich sinflarda ingliz tili lug'at boyligini shakllantirish usullari. *Xalq ta'limi*, 4, 52–56.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.